

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

«YOQILG'I VA YONISH ASOSLARI»

fanidan

tajriba ishlari uchun uslubiy ko'rsatma

Toshkent 2007

Tuzuvchilar: Rahimjanov R.T., Xashimova M.A.,  
Mahkamjonova Sh.K.

«Yoqilg'i va yonish asoslari» fanidan tajriba ishlari uchun  
uslubiy ko'rsatma Toshkent, ToshDTU, 2007. - 20b.

Ushbu uslubiy ko'rsatma 550100 «Issiqlik energetikasi»  
bakalavriat ta'lif yo'naliши talabalariga energetik yoqilg'ining sifatini  
nazorat qilish, tekshirish va sarfini hisoblashda yordam berishga  
qaratilgan bo'lib, unda IESIning o'txona qurilmalarida yonish  
jarayonining tekshirish usullari ham bayon qilingan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika  
universitetining ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etishga  
tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: O'zbekiston Respublikasi FA Umumiyl va  
noorganik kimyo instituti professori, k.f.d. Normetova G.R.,  
ToshDTU «Issiqlik energetikasi» kafedrasi dotsenti, k.f.n.  
Yusupaliyev R.M.

## 1-TAJRIBA I SHI

### Organik yoqilg'ining tasnifi

Ishning maqsadi

Ishning asosiy maqsadi har xil yoqilg'i turlari va ularning kelib chiqish farqlari bilan tanishi shidan iborat. Rahbar boshchiligidagi qattiq yoqilg'ining o'zgarish (metamorfizm) bosqichlari aniqlanadi.

Nazariy qism

Yoqilg'ining genetik tasnifi

Qattiq yoqilg'i konlarining hosil bo'lishi quyidagi dastlabki materialarga asoslanadi:

1. Toshko'mir va unga yaqin geologik davrlardagi yer usti o'simliklari.

2. Uncha chuqur bo'limgan suv havzalarida rivojlanadigan mikroorganizmlar va suv o'tlari.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra dastlabki moddalar turlicha bo'ladi. Yer usti o'simliklari tarkibida selyuloza, pentozan, geksozan, lignin uchraydi. Suv o'simliklari va mikroorganizmlarida ko'p miqdorda yog' moddalari bo'ladi.

Yuqori namlik va kislorod yetishmagan hollarda, hamda mineral moddalar to'plangan havosiz joylarda o'simlik qoldiqlarining chirishi gumus moddalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Suv o'ti va plankton yog' moddalarning o'zgarishi sapropelni hosil qiladi. Shunday qilib, yoqilg'ining genetik tasnifi yonuvchi moddalarning quyidagicha bo'linishiga asoslanadi:

1. Torf, qo'ng'ir va toshko'mirlar, hamda antratsit gumus tabiatli yonuvchi yoqilg'ilar.

2. Yonuvchi slaneslar, bu sapropel tabiatli yoqilg'ilaridir.

Ayrim ko'mir turlari gumus-sapropellardan hosil bo'lishi mumkin, chunki ular o'simliklardan tashqari oddiy suv o'ti va mikroorganizmlarning ishtirokida rivojlanganlar. Xuddi shunday, ayrim yonuvchi slaneslar sapropel-gumus tabiatli bo'lislari mumkin.

Yonuvchi moddalarning konlarda rivojlanish jarayonlari bir necha geologik davrlar davomida o'tadi. Gumus tabiatli yoqilg'i paydo bo'lisingin birinchi bosqichi torfdir.

Bu bosqichda gumin kislotalarining to'planishi kuzatiladi. Ikkinci bosqich, torfning ko'mirlarga o'zgarishi, konlarning usti mineral qoldiqlari bilan qoplanishidan so'ng boshlanadi.

Aerob va anaerobli bakteriyalarning ta'sirida konlarda dastlabki organik materialning ko'mirlanishi boshlanadi va uning chuqur o'zgarishi uglerod miqdori oshishi va kislorod miqdori kamayishi bilan davom etadi. Qazilma ko'mirlarning xususiyati faqatgina dastlabki o'simlik materialining tarkibiga bog'liq bo'lmay, balki uning to'planish sharoitiga va organik qoldig'ining o'zgarish jarayoniga ham bog'liq. Ko'mirlanish jarayoniga ko'ra gumus tabiatli yoqilg'i turlari jadvalda mallum tartibda joylashgan.

### Gumus tabiatli yoqilg'ilar organik massalarining element tarkibi

1-jadval

Yoqilg'i turlari	Organik massasining tarkibi, %		
	C	H	O
O'tin	44,0	6,0	50,0
Torf	59,0	6,0	35,0
Qo'ng'ir ko'mir	70,0	5,5	24,5
Toshko'mir	82,0	5,0	13,0
Antratsit	95,0	2,0	3,0

Torf va qo'ng'ir ko'mirlar ishqorda eriydigan gumin kislotalariga ega. Toshko'mir va antratsitlarda esa ishqorda eriydigan gumin kislotalari yo'q. Ishning bajarish jarayonida gumus tabiatli yoqilg'ilarning ko'rinishi va xususiyatlari (parchalanib ketadigan o'simlik qoldiqlarining borligi, tuzilishi, mineral qoldiqlarining mustahkam joylanishi, fraksion tarkib) bilan tanishish va ularning tuzilishini o'rganish lozim.

Ayrim namunalarda rahbarning ko'rsatmasiga ko'ra ishqorda eriydigan gumin kislotalari borligi aniqlanadi.


### Tajriba o'tkazish

Ikkita probirka olinadi, biriga 0,3 gr. maydalangan qo'ng'ir ko'mir yoki torf, ikkinchisiga esa – 0,3 gr. maydalangan antratsit

solinadi. Ikkala probirkaga  $8-10 \text{ sm}^3$  2%li natriy hidroksid eritmasi qo'shiladi. Probirkalar biroz qizdiriladi va chayqatiladi. Antratsit probirkalari ishqor eritmasi rangsiz bo'lib turadi, qo'ng'ir ko'mirli probirkaning rangi jigarrang bo'lib, u qo'ng'ir ko'mir tarkibidagi gumin kislotalarining eritmaga o'tib ketishi tufayli sodir bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan usul toshko'mir va antratsitlardan yuqori ko'mirlanish bosqichidagi qo'ng'ir ko'mirni ajratib olishga imkon beradi.

Tajriba o'tkazilishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Qo'ng'ir ko'mir va toshko'mirlarni o'zaro farqlash:  
a) yoqilg'i miqdorini o'chab olish; b) yoqilg'ini farqlash.

Nazorat uchun savollar

1. Gumus tabiatli yoqilg'ilarga qanday yoqilg'ilar kiradi?
2. Sapropel tabiatli yoqilg'ilarga qanday yoqilg'ilar kiradi?
3. Gumin kislotasi borligi qanday aniqlanadi?
4. Gumus tabiatli yoqilg'ilar organik massasining element tarkibi qanday o'zgaradi?

## 2-TAJRIBA ISHI

Qattiq yoqilg'i kukunini elab tahlil qilish

Ishning maqsadi

Kukunni elab tahlil qilish uslubi bilan tanishish va to'liqsiz don tavsifini tuzish.


## Nazariy qism

Yoqilg'ining samarali yonishi va changsimon yoqilg'ini tayyorlash tizimi ishini baholash uchun kukunning katta-kichik fraksiyalariga taqsimlanishini bilish zarur. Yoqilg'ining maydaligi oshib borishi bilan maydalashga ketgan elektr energiyaning sarfi oshib boradi. Shu vaqtida yoqilg'i to'la yonmagani hisobiga issiqlik yo'qolishi ko'payadi. Malum darajada maydalangan kukunda sarflash yig'indisi minimal bo'ladi. Kukunning maydalangan darajasini aniqlash uchun ko'mir kukuni elab tahlil qilinadi.

Kukunni elab tahlil qilishni bajarish uchun u bir necha andaza o'lchamli elaklarda elanadi. Teshikchalarning o'lchamiga qarab elakning katakchalarini andaza diametrli simlardan tayyorlanadi. Qozonxonalarda 60 dan 1000 mikrongacha o'lchamli teshikchalar qo'llaniladi.

### Aniqlash uslubi

Sinashga olingan kukunning miqdori (10-40 gr.) kattasidan boshlab to' kichigiga qarab har xil o'lchamli elaklarda elanadi. Maydalangan ko'mirni elab olinishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Maydalangan ko'mirni elaklarda elash.

a) maydalangan yoqilg'ini miqdorini o'lchab olish; b) maydalangan yoqilg'ini elanishi.

Ushbu o'lchamli elakda sinashga olingan miqdorning qoldig'i sinashga olingan umumiy miqdordan % da olinadi va Rx da ifodalaniлади. Kukunning o'lchamli elakdan o'tishi Dx bilan ifodalaniлади. Bunda har qaysi o'lchamli elak uchun quyidagi nisbat to'g'ri keladi.

$$D_x + R_x = 100\% \quad (1)$$

Elab tahlil qilish natijasi maydalinishning fizik qonunini ifodalovchi to'liqsiz don tafsifini qurish uchun imkon beradi.

$$R_x = 100 \times e^{-vsn} \quad (2)$$


bunda  $v$  – elaklanishning maydaligini ifodalovchi doimiy koeffitsient;

$s$  – yoqilg'i tabiatini ifodalovchi doimiylik;

$n$  – kukunning ichki tuzilishini ifodalovchi koeffitsient;

Zamonaviy elaklash qurilmalarida «n» qiymati 0,8 – 1,2 ga teng, agar  $n=1,0$  deb olsak, unda  $R_{90}$   $N_{90}$  elakdagi qoldig'i hisobiga ko'ra aniqlanadi.

$$B = \frac{1}{90} \ln x \frac{100}{R_{90}} \quad (3)$$



3-rasm. Kukun don tavsifining ko'rinishi.

Har qanday elak qoldig'i 90 N elakning qoldig'i orqali ifodalanildi.

$$R_x = 100x \left( \frac{R_{90}}{100} \right) \left( \frac{X}{90} \right) \quad (4)$$

Bu tenglama zarrachaarning o'lcham funksiyasi va elakdagi qoldiqning qiymatining bog'liqligini ifodalovchi kukunning to'liqsiz don tavsifini qurishga imkon beradi.

### Tajribani olib borish

1. 25 gr. sinashga olingan miqdorni chinni hovonchada kukun holatigacha maydalanadi.

2. Har xil elaklar yig'iladi, eng kattasini yuqoriga va eng kichigi pastga o'rnataladi, uning tagida esa tubi bo'ladi.
3. Elash tugagandan so'ng, har qaysi elakdan, shu jumladan tagidan qoldiq yig'iladi va uning og'irligi o'lchanadi. Qoldiqni elakdan to'kishda u ehtiyyotkorlik bilan chot'kada tozalanadi, so'ng har qaysi elakda to'liq qoldiqning qiymati  $R_x$  aniqlanadi.

$$R_x = \frac{G}{G_{so}} \times 100\% \quad (5)$$

bunda:  $G_{so}$  - sinashga olingen miqdorning og'irligi, gr.

$G$  - elakda qolgan sinashga olingen miqdorning qoldig'i, gr.

$X$  - elakdagi teshikchalarining o'lchami.


Har qaysi elakning qoldig'ini fraksiya deb atab,  $F_{xi-1/xi}$  indeksi bilan belgilanadi. U elakning teshikchalariga to'g'ri keladi. So'ng elakdan o'tish «tagi» - I deb ataladi, bu elakdagi qoldiq, qolgan yirikroq elaklarning qoldiqlari bilan birga to'liq qoldiq deb ataladi. Eng yirik elakning kukun qoldig'i bir vaqtida fraksiya va to'liq qoldiq bo'ladi.

$R$ ,  $F$  va  $I$  qiymatlar elashga olingen dastlabki kukunning sinashga olingen miqdori og'irligidan %da ifodalaniladi.

4. Elash natijasiga ko'ra quyidagi jadval tuziladi:

2-jadval

No	Teshikchalar $X$ , mkm.	Har qanday elak- ning fraksiyasi gr. $F_x$	Elakdagi qoldiq gr. $R$	Elakdagi qoldiq % $R_x$	Eslatma
1					
2					
3					
4					
5					



4.rasm. Elash natijasi egri chiziq grafik ko'rinishda keltirilgan.

#### Nazorat uchun savollar

1. Kukunning fraksiyasi nima deb ataladi?
2. Yoqilg'ining maydalishi va elanishi amaliyotda qanday ahamiyatga ega?
3. Elanish qaysi yo'nalishda olib boriladi?

#### 3-TAJRI BA ISHI

#### Mazutning zichligini aniqlash

##### Ishning maqsadi

1. Neft mahsulotlarining zichligini aniqlash uslubi bilan tanishish.
2. Tajribaxonalar sharoitida mazutning ko'rindigan va haqiqiy zichligini aniqlash.

##### Nazariy qism

Mazutning zichlik ko'rsatkichlari boshqa neft mahsuloti qatori amaliyotda katta ahamiyatga ega. Boshqa fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bilan birga zichlik, neft mahsulotlarining kelib chiqishi va mahsulot sifatining kimyoviy tarkibini ifoda qiluvchi parametridir. Mazut saqlanadigan moslamalarning hajmini aniqlashda, mazutni boshqa joyga o'tkazish uchun energiyaning sarfini hisoblashda zichlik ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Amaliyot maqsadi uchun ko'pincha  $\rho_{t_1}^{t_2}$  nisbiy zichlik aniqlanadi. U  $t_2$  haroratdagi neft mahsuloti zichligi va  $t_1$  haroratdagi distillangan suvning zichligi nisbatini ifodalaydigan qiymatdir. Suv uchun  $t_1=4^{\circ}\text{C}$ , neft mahsulotlari uchun  $t_2=20^{\circ}\text{C}$  andaza harorat deb olingan. Boshqa davlatlarda esa neft mahsulotlari va suvgaga andaza harorat quyidagicha  $t_1 = t_2 = 50^{\circ}\text{F}$  u  $15,5^{\circ}\text{C}$  haroratga to'g'ri keladi. Shunday qilib  $\rho_4^{20}$  yoki  $\rho_{15}^{15}$  da aniqlanadi. Suvning zichligi  $4^{\circ}\text{C}$  da 1 gr/sm<sup>3</sup> bo'lib, bizlarda qabul qilingan  $\rho_4^{20}$  ni aniqlashda nisbiy va mutlaq qiymatlari bir-biriga to'g'ri keladi. To'g'ridan-to'g'ri haydab olingan mazutning nisbiy zichligi 0,95 dan oshmaydi, kreking mazut hamda yuqori oltingugurtli mazutlarda har doim 1,0 dan yuqori bo'ladi va ayrim hollarda 1,06 ga teng. Bir xil hom-ashyolardan olingan yoqilg'ilarda zichlik va qovushqoqlik orasidagi mallum bir-biriga bog'liqlik mavjud. Zichligi oshishi bilan uning qovushqoqligi oshib boradi. Zichlikka harorat va bosim ham ta'sir qiladi. Harorat oshishi bilan mazutlarning nisbiy zichligi pasayadi. Ko'p neft mahsulotlarining zichlikka haroratning bog'liqligi Mendeleyev tomonidan topilgan «to'g'ri chiziq» qonuniga bo'yusunadi.

$$\rho_4^t = \rho_4^{20} - \alpha(t - 20) \quad (6)$$

bunda:  $\rho_4^{20}$  - andaza haroratdagi mazutning nisbiy zichligi.

$t$  - mazutning harorati

$\alpha$  -  $1^{\circ}\text{C}$  harorat o'zgarishida zichlikning o'zgarish qo'shimchasi

Ba'zi bir  $\alpha$  qiymati quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Zichlik	O'rtacha $1^{\circ}\text{C}$ harorat o'zgarishiga qo'shimcha
0,9400-0,9499	0,000581
0,9500-0,9599	0,000576
0,9600-0,9699	0,000554
0,9700-0,9799	0,000541
0,9800-0,9899	0,000528
0,9900-1,0000	0,000515

Haroratning  $1^{\circ}\text{C}$  oshishi mazutning zichligini taxminan 0,09% pasaytiradi.  $\rho_4^{20}$  dan  $\rho_{15}^{15}$  o'tish uchun quyidagi oddiy tenglama bilan foydalaniлади:

$$\rho_{15}^{15} = \rho_4^{20} + 5\alpha \quad (7)$$

Bosimning zichlikка та'siri, harorat ta'siriga qaraganda ancha kam. Bosimning  $100 \text{ MPa}$  gacha ko'tarilishi zichlikni atigi 5-7% gacha kamaytiradi.

### Aniqlash uslubi

Neft mahsulotini piknometrda aniqlashda dastlab uning «Suv» raqami о'rnatiladi, yoki  $Q$   $20^{\circ}\text{C}$  haroratda piknometr hajmida suvning og'irligi o'lchanadi. Keyin bo'sh, quruq piknometrning og'irligi o'lchanadi. Toza quruq piknometrga pipetka yordamida mazut  $50^{\circ}\text{C}$  haroratda quyiladi, so'ng u  $20^{\circ}\text{C}$  haroratda balandligi o'zgarmaguncha termostatda ushlab turiladi. Yuqori menisk bo'yicha sathini o'lchab, mahsulotli piknometrning og'irligi 0,0002 gr. aniqligiga o'lchanadi. Piknometrda aniqlangan ko'rindigan zichlik quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi:

$$\rho^1 = \frac{m_2 - m_1}{m_3} \quad (8)$$

bunda:  $m$  – piknometrning suv raqami, gr, ( $m = m_3 - m_1$ );

$m_1$  – bo'sh piknometrning og'irligi, gr;

$m_2$  – neft mahsulotli piknometrning og'irligi, gr;

$m_3$  – suvli piknometrning og'irligi, gr.

Piknometrda aniqlangan neft mahsulotining ko'rindigan zichligini  $\rho_4^{20}$  qayta hisoblashda quyidagi tenglama qo'llaniladi:

$$\rho_4^{20} = (0,99823 - 0,0012)\rho^1 + 0,0012 = 0,99707 \quad (9)$$

bunda  $0,99823 - 20^{\circ}\text{C}$  haroratda suvning zichligi.

$0,0012$   $-20^{\circ}\text{C}$  harorat va  $760\text{mm}$  simob ustunida o'lchangan havoning zichligi.

$\rho^1$  - ko'rindigan zichlik.

Häqiqiy zichlikni aniqlash uchun ko'rindigan zichlikdan qo'shimchani ayirib tashlash kerak. Ko'rindigan zichlik va qo'shimcha qiymati jadvalda berilgan.

4-jadval

Ko'rinadigan zichlik	Qo'shimcha	Ko'rinadigan zichlik	Qo'shimcha
0,6900-0,6999	0,0009	0,8600-0,8899	0,0014
0,7000-0,7099	0,0009	0,8900-0,9299	0,0015
0,7100-0,7199	0,0009	0,9300-0,9599	0,0016
0,7200-0,7599	0,0010	0,9600-0,9899	0,0017
0,7600-0,7899	0,0011	0,9900-1,0000	0,0018
0,7900-0,8199	0,0012	0,9900-1,0000	
0,8200-0,8599	0,0013		

Mazutning ko'rinadigan zichligi qovushqoqligi kabi har xil haroratda aniqlanadi.


Tajriba natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi.

5-jadval

Taj- riba №	Mazut- ning, og'irl. gr.	Bo'sh pik- nometrni og'ir. m <sub>1</sub> .gr.	Yoqilg'i b-n piknom. og', m <sub>2</sub>	Piknom. suv b-n og'irligi m <sub>3</sub> , gr	Zichlik	
					Ko'ri- nadi- gan ρ <sup>1</sup>	Haqiq iy ρ <sup>20</sup> <sub>4</sub>
1						
2						
3						

Olingen natijaga ko'ra mazutning zichligi harorat bilan orasidagi bog'laniш chizig'i quriladi: t<sub>1</sub>, t<sub>2</sub>, t<sub>3</sub>.

ρ



5-rasm. Mazut zichligining haroratga bog'liqlik grafigi.

## Nazorat uchun savollar

1. Mazutning nisbiy zichligi nimadan iborat?
2. Suv va mazutning zichligi qaysi haroratda aniqlanadi?
3. Har xil mazutlarning nisbiy zichligi qaysi qiymatda bo'ladi?
4. Mazutning zichligi qaysi omillarga bog'liq?
5. Mazutning ko'rinaligan va haqiqiy zichligi qanday aniqlanadi?

## 4-TAJRIBA I SHI

Suyuq yoqilg'ida shartli qovushqoqlikni aniqlash

Ishning maqsadi

1. Suyuq yoqilg'ining qovushqoqlik turlarini o'rganish.
2. Engler konstruksiyali viskozimetrlarning tuzilishi bilan tanishish.
3. Har xil haroratda suyuq yoqilg'ining (mazutning) shartli qovushqoqligini aniqlash.
4. Mazutning qovushqoqligini haroratga bog'liqlik egri chizig'ini tuzish.

Nazariy qism

Qovushqoqlik neft mahsulotlarining eng muhim tavsiflardan biridir. U quyish va to'kish operatsiyalarining davomiyligini, ularning quvur yo'llarida tashilishi uchun energiyaning sarfini tavsiflaydi. Qovushqoqlik mazutning saqlanish vaqtiga, tashilishi, isitilishi va uni suvdan to'liq ajrab chiqishiga, mexanik qoldiqlarining to'liq cho'kishiga ham ta'sir qiladi.

Qovushqoqlik (ichki ishqalanish) bu tashqi kuch ta'sirida vujudga keluvchi bir-birining harakatiga qarshilik ko'rsatadigan xususiyatidir.

Qovushqoqlik yoki ichki ishqalanish  $\zeta$  qiymati bilan ifodalanadi, u dinamik qovushqoqlik deb ataladi. Dinamik qovushqoqlikning aniqlanishi Geppler deb ataladigan zoldirli viskozimetr yordamida o'tkaziladi. Uning uchun neft mahsuloti bilan to'ldirilgan qiyishiq turgan qurvuring ichida zoldirning harakat vaqt o'chanadi.

Dinamik qovushqoqlik quyidagi tenglama bilan hisoblanadi.

$$\varsigma = C \tau (\rho_z - \rho_s) \quad (10)$$

bunda  $\varsigma$  - dinamik qovushqoqlik, Pa.s (Puaz);

$S$  - zoldirning doimiyligi, etalon suyuqlik va asbobni darajalash bilan aniqlanadi, N m/kg;

$\rho_z, \rho_s$  - zoldir va aniqlanayotgan neft mahsulotlarining zichligi, kg/m<sup>3</sup>.

Dinamik qovushqoqlik tushunchasidan tashqari kinematik qovushqoqlik tushunchasidan ham foydalaniлади, ундин dinamik qovushqoqliknинг zichligi nisbatiga teng.

$$v = \frac{\varsigma}{\rho}, \text{m}^2 / \text{sek. (stoks)} \quad (11)$$

bunda  $\rho$  - neft mahsulotining zichligi, kg/m<sup>3</sup>.

Neft mahsulotlari bilan ishlash tajribasida solishtirma va shartli qovushqoqliklarning tavsiflaridan keng foydalaniлади.

Shartli tanlangan haroratda solishtirma qovushqoqlik suyuqlikning dinamik qovushqoqlikligi suvniga qaraganda yuqori yoki past bo'lishini ko'rsatadi.

$$M = \frac{\varsigma_t}{\varsigma_{H_2O}} \quad (12)$$

bunda  $\varsigma_t$  - ushbu suyuqlikning t haroratdagи dinamik qovushqoqligi, Pa.s;

$\varsigma_{H_2O}$  - shartli olingen t haroratdagи suvning dinamik qovushqoqligi, Pa.s;

Neft mahsulotlarining tahlili tajribasida tekshirilayotgan mahsulotning mal'um haroratda dinamik qovushqoqligi 20°C haroratdagи suvning qovushqoqligi bilan solishtiriлади. Mal'umki  $\varsigma_{H_2O}$  da suvni 1 santipuazga teng (0,01 puaz=10<sup>3</sup> Pas). Bu holatda solishtirma qovushqoqlikning qiymati taxminan santipuazda olingen dinamik qovushqoqlikka teng.

Shartli qovushqoqlik solishtirma qovushqoqlik kabi nisbiy qiymatga ega. Shartli qovushqoqlik deb Engler konstruksiyali viskozimetrdan 200ml tekshirilayotgan neft mahsuloti tajriba haroratida oqib chiqadigan vaqtining, 20°C haroratdagи 200ml distillangan suvning oqib chiqadigan vaqtiga nisbatiga aytildi. Bu nisbatning

qiymati shartli qovushqoqlik (ShQ) yoki Engler gradusida ( $E^0$ ) ifodalaniadi.

Mazutning shartli qovushqoqligi t haroratda quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi.

$$ShQ = \frac{\tau^m}{\tau_{20} H_2 O}, \quad ShQ^0 \quad (13)$$

bunda  $ShQ^0$  – shartli qovushqoqlik;

$\tau$  t – 200 ml. mazutning tekshirilayotgan haroratdagi oqib ketadigan vaqt, sek;

$\tau_{20} H_2 O$  – viskozimetrining suv raqami, sek.

Shartli qovushqoqlikning qiymatini mutlaq birligida empirik tenglama yordamida qayta hisoblash mumkin.

Shartli qovushqoqlikning kinematik qovushqoqlikka va orqaga o'tkazishda qayta hisoblangan empirik tenglamalardan jadvallar va nomogrammalar tuzilgan. Ularning orasida nisbatan katta aniqligiga ega Fogel tenglamasi mavjud. Qovushqoqlikning Fogel tenglamadagi qayta hisobini quyidagi jadvalga kiritish mumkin.

6-jadval

Shartli qovushqoqlik	ShQ	731	6,3	7,4			
Kinematik qovushqoqlik	V m <sup>2</sup> /s	1	120	121			

Hisoblash uchun 10 ShQ 1,143 o'rtalagi qiymatini olish lozim.

Neft mahsulotlarining qovushqoqligi (uning qaysi ifodasidan qat'iy nazar) haroratga bog'liq. O'g'ir suyuq yoqilg'ilarda (mazatlarda) bu bog'liqlik Valter tenglamasi bilan ifodalaniadi.

$$L_g L_g(v+0,8)=A-B L_g T \quad (14)$$

bunda T – mutlaq harorat:  $T=(t+273)$  K;

A va B – koefitsientlar.


Logarifm koordinatalarda Valter formulasi to'g'ri chiziq tenglamasini ifodalaydi. Mazutning qovushqoqligi bosim ko'tarilishi bilan oshadi. Yoqilg'inining tarkibidagi unsurlarning tuzilishi

murakkabligi oshib borishi bilan, bosim ham shunchalik ko'p qovushqoqlikka ta'sir qiladi. Shuning uchun yuqori qovushqoqlik mazutlarda past qovushqoqlik mazutlarga ko'ra bosim oshib borishi kuchliroq bo'ladi.

Qanchalik mazutning harorati yuqori bo'lsa, shunchalik bosim oshishi bilan qovushqoqlik kam o'zgaradi.

### Engler asbobining tuzilishi va aniqlash uslubi

Suyuq yoqilg'i va boshqa neft mahsulotining shartli qovushqoqligini aniqlash Engler tuzilishli ShQ turli viskozimetrda olib boriladi.



6-rasm. Viskozimetr sxemasi (Engler konstruksiyasi)

Viskozimetr (4-rasm) mahsulotni sinash uchun ichi silliq va kumush yuritilgan idishdan (1) va suv yoki yog' bilan to'ldirilgan birinchi idishni termostatlash uchun ishlataladigan (2) idishdan iborat. Ikkinci idish reostat yoki transformator bilan boshqariladigan elektr qizdirgich bilan jihozlangan.

Ichki idish ikkita teshigi bor qopqoq (3) bilan yopiladi, u tekshirilayotgan mazutning haroratini o'lchaydigan termometr (4) qopqoqdan erkin o'tadigan, to'kish teshigini (6) yopish uchun xizmat qiladigan yog'ochli chiviqqa (5) mo'ljalangan. To'kish teshigining ichi silliq kalibrlangan platinali quvurchadan iborat.

Ichki idishda tagiga bir xil masofada devorlarga to'g'ri burchak shaklida yuqoriga qarab qiyshaygan uchta uchli shtiftlar (7) o'rnatilgan. Ushbu shtiftlar quyilgan suyuqlikning sathini ko'rsatadi va bir vaqtida asbobda uning yordamida suyuqlikning tekis holati o'matiladi. Tashqi idishda aylantirgich (8) termostatlangan suyuqlikni aralashtiradi, termometr esa uning haroratini o'lchaydi.

Yoqilg'ini tekshirishdan avval, viskozimetrdan uning suv raqami aniqlanadi. Viskozimetrdning suv raqami deb 200 ml distillangan suvning +20°C haroratda oqib chiqish vaqtiga aytildi. Andaza asbobda bu vaqt  $51 \pm 1$  sek.ga teng. Sinalayotgan yoqilg'ida oqib chiqish vaqtini aniqlashda bir xil harorat bo'lishini ta'minlash lozim. Uning uchun asbobni kamida 5 min. davomida ushlab, termostat harorati tajriba jarayonida bir xil bo'lib turishi lozim.

Aniqlanayotgan yoqilg'ining hajmini o'lchash uchun 200 ml. belgigacha hajmli maxsus shaklli idishlar qo'llaniladi. Idishlar 20°C haroratda kalibrланади. Haroratni o'lchash 1°C gacha bo'lingan termometr yordamida o'tkaziladi. Aniqlanayotgan yoqilg'i dastlab suvsizlantirilgan va mexanik qoldiqlardan holis bo'lishi kerak. Asbobga yoqilg'i quyilishidan avval ichki idish va to'kish teshigi havo bilan quritilishi lozim.

Yoqilg'i dastlab 2-3°C aniqlash uchun olingen haroratdan yuqori qizdiriladi va unda havo hosil bo'lmasligi lozim. Sinalayotgan yoqilg'i va asbobni tayyorlab tahlil quyidagi tartibda olib boriladi.

Ichki idishdag'i teshikni mahkam berkitib unga qizdirilgan yoqilg'i shtiftlarning uchidan balandroq quyiladi. Tashqari idishdag'i suvning harorati elektr qizdirgich yordamida belgilangan haroratdan 2-5°C yuqori o'rnatiladi, yoqilg'ining harorati belgilangan haroratgacha ko'tariladi va 5 min. davomida ushlab turiladi. Tashqari idishda suvni aralashtirgich bilan aralashtirib va zarur paytda elektr qizdirgichni ishga tushirib, termostatda kerakli harorat tajriba davomida ushlab turiladi.

Chiviqni biroz ko'tarib, yoqilg'i ortiqchasi oqib ketishiga imkon beriladi va uning sathi shtiftlarning uchli nuqtsasi bilan baravar bo'lishi lozim. Agar yoqilg'i keragidan tez oqib ketadigan bo'lsa, uni tomchilatib quyish lozim, yoqilg'ining orasida havo qolmasligini nazorat qilib turish kerak. Asbob qopqoq bilan berkitiladi va oqizadigan quvurchanening tagiga quruq o'lchov idish qo'yiladi. Asbobning qopqoq'ini chivig'i atrofida termometr yordamida extiyotlik

bilan yoqilg'i aralashtiriladi. Agar yoqilg'ida termometr aniq berilgan haroratni ko'rsatsa, yana 5 min. kutiladi, so'ng chiviqni tez olib, bir payt sekundomer ishga tushiriladi.


I dishda yoqilg'i hajmi 200 ml. belgisiga yetganda (ko'pik hisobga kirmagan), sekundomer to'xtatiladi. Aniqlash 2-3 marta qaytariladi va aniqlash orasidagi farq 0,5 sek. dan oshib ketmasligi kerak. Olingen natijalar jadvalga kiritiladi va yuqorida jadval va tenglamalardan foydalanib,  $ShQ_t$ ,  $v$ ,  $\zeta$ ,  $M$  ko'rsatkichlar hisoblanadi.

7-jadval

Tajriba №	$H_2O$ $\tau_{20}$	$\tau_t$	$ShQ^t$	$v$	$\zeta$	$M$	eslatma
	sekund		${}^{\circ}ShQ$	$m^2/s$	Pa.s	-	
1.							
2.							
3.							
4.							

Olingen tajriba natijasiga ko'ra mazutning qovushqoqligi haroratga bog'liqlik grafigi tuziladi.

Lg Lg ( $V+0,8$ )



5-rasm. Mazut qovushqoqligining haroratga bog'liqlik grafigi.

Nazorat uchun savollar

1. Ishning vazifasi nimadan iborat?
2. Qovushqoqlikning qanday turlarini bilasiz va ular qanday aniqlanadi?

3. Shartli qovushqoqlikni boshqa qovushqoqlik turlariga qanday qilib o'tkazish mumkin?
4. Neft mahsulotining qovushqoqligiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
5. Engler konstruksiyali asbob nimadan iborat?
6. Engler asbobida shartli qovushqoqlik qanday aniqlanadi?

## A D A B I Y O T L A R

1. Белосельский В.С. Технология топлива и энергетических масел -М.: МЭИ, 2003.
2. Алимбаев А.У., Шоисломов А.Ш., Ташбаев Н.Т. Ё~~с~~илги ва ёниш асослари. Олий ў~~с~~ув юртлари талабалари учун ў~~с~~ув ~~с~~ўлланма. – Тошкент, ТошДТУ, 2002.
3. Раҳимджанов Р.Т., Хашимова М.А., Алимов Х.А. Энергетик ё~~с~~илги ва ёниш асослари фанидан тажриба ишлари учун услубий кўрсатмалар. –Тошкент, ТошДТУ, 1998.
4. Дияров Н. и др. Химия нефти. Руководство к лаб. занятиям.-Л.: Химия, 2000.
5. Рудин М.Г. Справочник нефтепереработчика, -Л.: Химия, 1999.
6. [WWW.ezi.ru](http://WWW.ezi.ru). Топливо, горючее вещество.
7. II<sup>Б</sup>.su.su.as.ru.: 80101. Топливо, хранение, сжигание.

## Mundarija

1-tajriba ishi. Organik yoqilg'ining tasnifi	3
2-Tajriba ishi. Qattiq yoqilg'i kukunini elab tahlil qilish	5
3-Tajriba ishi. Mazutning zichligini aniqlash	9
4-Tajriba ishi. Quyuq yoqilg'ida shartli qovushqoqlilikni aniqlash	13
Adabiyotlar	20

Muharrir M.M.Botirbekova

